

Tanlov o'tkazishning umumiy qoidalari

1. Umumiy qonun-qoidalar

1.1. KNAUF brendi mahsulotlarini O'zbekistonda ommalashtirish va targ'ib qilish, iste'molchilarning sodiqligini oshirish hamda oilaviy tadbirkorlik qadriyatlarini va tamoyillarini mustahkamlash maqsadida "KNAUF GIPS BUKHARA" mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi xorijiy korxonasi ("KNAUF GIPS BUKHARA" MCHJ XK) asos solgan tanlovlar, viktorinalar va yutuqli o'yinlar (keyingi o'rinlarda tanlov deb yuritiladi) tashkil etadi.

1.2. Mazkur Qoidalarga muvofiq, tanlovlar internet-platforma va portallardan foydalangan holda, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn tarzda o'tkaziladi.

1.3. Tanlov ochiq bo'lishi mumkin - unda hamma xohlovchilar ishtirok etadi yoki yopiq bo'lishi mumkin – unda Tashkilotchi tomonidan belgilangan shaxslar ishtirok etadi.

1.4. Tashkilotchi sifatida "KNAUF GIPS BUKHARA" MCHJ XK tanlovlarni tashkil etishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ushbu qoidalarga, shuningdek, internet platformalari va ijtimoiy tarmoqlarda tanlov o'tkazish qoidalarga amal qiladi.

1.5. Tanlovlar halollik, ochiqlik, qonuniylik, barcha ishtirokchilarni hurmat qilish va har qanday diskriminatsiyaga toqatsizlik tamoyillari asosida o'tkaziladi. Ushbu tamoyillarga rioya qilish uchun javobgarlik Tanlov Tashkilotchisi va uning barcha ishtirokchilariga tegishlidir.

2. Tanlovni tashkil etish.

2.1. Har bir tanlov uni o'tkazish qoidalarga (tanlov qoidalari) muvofiq tashkil etiladi.

2.2. Tanlov qoidalari, albatta, quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- Tashkilotchi haqida ma'lumot;
- tanlov o'tkaziladigan hudud, joy;
- tanlovda ishtirok etish shartlari;
- tanlov vazifasi mohiyatini ko'zda tutuvchi shartlar;
- ish yoki boshqa yutuqlar natijalarini baholash mezonlari va tartibi;
- ish natijalari yoki boshqa yutuqlarni taqdim etish joyi, muddati va tartibi;
- mukofotning hajmi va shakli;
- tanlov natijalarini e'lon qilish tartibi va muddatlari;
- Tashkilotchining aloqa ma'lumotlari.

2.3. Tanlov qoidalari zaruriy ma'lumotlardan tashqari, ushbu qoidalarga havolalarni o'z ichiga olishi hamda har qanday shaxsga ular bilan tanishish imkoniyatini beradigan tarzda chop etilishi va translyatsiya qilinishi kerak.

2.4. Har bir tanlovni tashkil etish to'g'risida Tashkilotchi e'lon qiladi. Tanlov to'g'risidagi e'londa quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- tanlov o'tkazilish muddatlari (sana va vaqt "shu kungacha" yoki "shu sanani ham o'z ichiga oladi" sharti bilan ko'rsatiladi);
- ma'lumot manbai (havolalar):
- Tanlov tashkilotchisi haqida;
- tanlov qoidalari va ushbu qoidalar haqida;
- tanlovda qatnashish uchun arizalarni topshirish va qabul qilish tartibi;
- sovrinlar soni, shartlari, ularni olish joyi, tartibi va muddati.

2.5. Tanlovning ishchi tillari o'zbek va rus tillaridir.

2.6. Tanlov shartlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Tashkilotchi tomonidan o'zgartirilishi va/yoki tanlov bekor qilinishi mumkin.

Tanlov shartlariga o'zgartirishlar kiritish yoki uni bekor qilish to'g'risidagi xabar tanlov e'lonidagi kabi amalga oshiriladi.

3. Tanlovda qatnashish va ish natijalari (tanlov mavzusi) uchun mukofotlash.

3.1. Har bir tanlov uchun uni o'tkazish qoidalarga muvofiq mukofot (bundan buyon

matnda mukofot deb yuritiladi) olinganligi e'lon qilinadi.

3.2. Mukofot tanlov ishtirokchisi sifatida ro'yxatdan o'tgan, tanlov g'oliblari deb e'lon qilingan bir yoki bir nechta shaxslarga belgilangan tartibda va o'z vaqtida bajarilgan (ish natijalari yoki yutuqlarni taqdim etgan) vazifalari uchun beriladi.

3.3. Mukofotlar tanlovning topshiriqlarni bajargan (ish natijalari yoki yutuqlarini taqdim etgan) istisnosiz barcha ishtirokchilariga ham berilishi mumkin, ya'ni bunda g'olib(lar) aniqlanmaydi yoki ular aniqlanadi, lekin boshqa ishtirokchilarga ham ishtiroki uchun sovg'alar taqdim qilinadi.

3.4. Mukofot va sovrinlarni topshirish tartibi va muddatlari tanlov qoidalarida belgilangan.

3.5. Ushbu Qoidalarga muvofiq mukofot sifatida faqat naqd pulsiz narsa-buyum sovg'a qilinishi mumkin. Mukofot mahsulot shaklida beriladi va naqd pulga almashtirilmaydi.

3.6. Tanlov ishtirokchilarining bajargan ishlari yoki boshqa yutuqlari baholash natijalariga qarab tanlov g'oliblari deb e'lon qilinadi. Baholash mezonlari va tartibi tanlov qoidalarida belgilanadi.

Ish natijalari yoki boshqa yutuqlarni baholash tanlov qoidalarida belgilangan mezonlarga muvofiq va ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

3.7. G'olib(lar)ga mukofotni topshirish/to'lash to'g'risidagi qaror tanlov Tashkilotchisi tomonidan uning ishtirokchilariga tanlov qoidalari va uni o'tkazish to'g'risidagi e'londa belgilangan tartib va muddatlarda e'lon qilinishi kerak.

3.8. Tanlovning barcha ishtirokchilari aloqa ma'lumotlarini (agar sovrin Tashkilotchi tomonidan yetkazib berilsa, tanlov qoidalarida ko'rsatilgan haqiqiy telefon raqami, elektron pochta manzili va sovrin yetkaziladigan haqiqiy manzil) xabar berishlari / taqdim etishlari shart. Tashkilotchi qo'shimcha ma'lumot olish uchun g'olib(lar) bilan bog'lanish huquqiga ega.

3.9. Tanlov ishtirokchisini g'olib deb e'tirof etish, shuningdek, unga mukofot berish to'g'risidagi qaror, agar 4.9-bandda nazarda tutilgan faktlar aniqlansa yoki Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, ishtirokchini g'olib deb e'tirof etish to'g'risidagi qaror e'lon qilingan sanadan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni ichida g'olib deb e'lon qilingan ishtirokchi bilan bog'lanishning iloji bo'lmasa tanlov Tashkilotchisi tomonidan bekor qilinishi mumkin.

Bunday holda, tanlov Tashkilotchisi tanlovning boshqa ishtirokchisini g'olib sifatida tanlash huquqiga ega. Boshqa g'olibni tanlash xuddi bekor qilingan (sobiq) g'olibni qanday tanlagan bo'lsa, xuddi shunday tarzda amalga oshiriladi. Tashkilotchi tanlovning barcha ishtirokchilarini tanlov e'lon qilingan tartibda va shunday qaror haqida xabardor qiladi.

Tashkilotchi tanlovning boshqa g'olibini tanlash to'g'risidagi barcha tanlov ishtirokchilariga yuboradigan xabarda/bildirishnomada ilgari tanlangan g'olibni bekor qilish (chetlashtirish)ning aniq sabablari aytilmaydi, ushbu qoidalarning bandlari va tanlov qoidalariga havola berilishi mumkin.

3.10. Tashkilotchi, agar bajarilgan ishning xususiyatidan boshqacha qoida kelib chiqmasa, tanlov ishtirokchilaridan g'oliblarning ham, mukofotlanmaganlarning ham ish natijalarini qaytarmaslikka haqli.

Shu bilan birga, Tashkilotchi tanlov ishtirokchilarining ish natijalaridan (tanlov predmetlari) mualliflariga hech qanday to'lov qilmasdan har qanday notijorat maqsadlarda foydalanish huquqiga ega.

3.11. Tanlov mukofotlari uchun soliq to'lash O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Tanlov ishtirokchilari va tanlovda ishtirok etish shartlari.

4.1. Tanlovda ishtirok etish bepul va ushbu qoidalarning 1.3-bandiga muvofiq ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

4.2. Tanlovda faqat O'zbekiston Respublikasi hududida istiqomat qiluvchi jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasida propiskaga ega bo'lgan chet el fuqarolari ishtirok etishlari mumkin.

Shu bilan birga, Tashkilotchi bitta tanlovda kattalar hamda voyaga etmaganlar uchun alohida va bir vaqtning o'zida tanlovlar o'tkazishi mumkin.

4.3. Mazkur qoidalarga muvofiq, O'zbekistondagi KNAUF korxonalarini xodimlari, shuningdek, tanlovlarni tashkil etish bo'yicha Tashkilotchiga aloqador shaxslar tanlov ishtirokchisi bo'la olmaydi.

4.4. Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilarga Tashkilotchi tomonidan qo'yiladigan aniq

talablar tanlov qoidalarida belgilanadi.

4.5. 4.2 va 4.3-bandlarda ko'rsatilgan talablarga javob beradigan har qanday shaxs tanlov qoidalarida belgilangan muddatlarda ish natijalari va/yoki yutuqlari Tashkilotchiga yetkazilgan/taqdim etilgan (tanlovdagi vazifani yoki tanlov oldi vazifasini bajargan) paytdan boshlab tanlov ishtirokchisi, deb tan olinadi.

Qoidalarning ushbu bandida ko'rsatilgan harakatlarni bajargan har qanday shaxs Tashkilotchiga ushbu shaxsni tanlov ishtirokchisi deb tan olish huquqini beradi, shu bilan u ushbu qoidalar va tanlov qoidalari bilan tanishligini tasdiqlaydi va ularni qabul qiladi.

4.6. Tanlov ishtirokchisi deb tan olishni rad etishga va ishtirokchini tanlovdan chetlashtirishga quyidagi holatlar sabab bo'lishi mumkin:

- shaxsning talablarga javob bermasligi va/yoki shaxs 4.2., 4.3 va 4.5-bandlarda, shuningdek, tanlov qoidalarida ko'rsatilgan talablarga rioya qilmasligi;

- agar shaxs shaxsiy ma'lumotlarni qasddan buzib ko'rsatgan bo'lsa (aldash, noto'g'ri ko'rsatish), shuningdek Tashkilotchi tomonidan ushbu qoidalar va tanlov qoidalariga muvofiq so'ralgan qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortgan bo'lsa, bu ushbu shaxsning Tashkilotchi tomonidan tanlov ishtirokchilari uchun qo'yilgan talablarga muvofiqligini tekshirishga imkon bermasa.;

- aldash yo'li bilan tanlov ishtirokchilariga qo'shilish (ochiq yolg'on ma'lumot berish);

- tanlovda ishtirok etish jarayonida aldov, firibgarlik yoki ushbu Qoidalarning 5.1-bandida ko'rsatilgan harakatlarni sodir etish;

- ushbu qoidalarning 1.5-bandida ko'rsatilgan tanlovlarni o'tkazish tamoyillaridan birini buzish.

4.7. Tashkilotchi tanlov ishtirokchisi ushbu Qoidalarning 4.6-bandida ko'rsatilgan asoslardan birortasi bo'yicha chetlashtirilgan taqdirda tanlovda ishtiroki bilan bog'liq hech qanday xarajatlarini qoplab bermaydi.

5. Mas'uliyat va yakuniy qonun-qoidalar.

5.1. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha izoh:

Tanlovlar o'tkazishda Tashkilotchi va uning ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish va ularning bajarilishini ta'minlash majburiyatini oladilar.

Tanlovlar tashkil etish va o'tkazish maqsadida, shu jumladan, bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki vositachilar orqali, har qanday shaxslar tomonidan o'zlari yoki uchinchi shaxslar uchun har qanday noqonuniy ustunlikka yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun Tashkilotchiga (uning xodimlari, shu jumladan tanlovni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan shaxslarga) pora taklif qilish, va'da qilish, tijoriy pora berish, pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulk xizmatlari ko'rsatish, boshqa mulkiy huquqlar, nomulkiy manfaatlar tarzida ustunlik berish korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga kiradi (keyingi o'rinlarda "Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar" deb yuritiladi).

O'tkazilayotgan tanlov doirasida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risida ishonchli ma'lumot olgan har qanday shaxs, xususan, tanlov ishtirokchisi yoki Tashkilotchining xodimi bu haqda darhol tanlov Tashkilotchisiga xabar berishi (taqdim etishi) shart. Aks holda, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risidagi mavjud ishonchli ma'lumotlarni xabar qilmaslik ushbu huquqbuzarlikni sodir etishga sheriklik sifatida baholanadi va bunday ma'lumotlarni yashirgan shaxs O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin.

5.2. Shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash siyosati:

Tanlov tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq shaxsiy ma'lumotlarni ularga ruxsatsiz yoki tasodifiy kirish, yo'q qilish, o'zgartirish, qulflash, nusxalash, tarqatish, shuningdek, boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish uchun barcha zarur huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'rish uchun javobgardir. Shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini, shu jumladan uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini kafolatlaydi va tanlov o'tkazish maqsadida qo'shimcha rozilik olmasdan olingan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga uchinchi shaxslarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Tanlov Tashkilotchisi va uning ishtirokchilari ushbu Qoidalarning 1.5-bandida bayon etilgan hamda ushbu Qoidalar va ularning majburiyatlarini belgilovchi tanlov qoidalarning

boshqa holatlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan tanlovlarni o'tkazish tamoyillariga rioya qilish uchun javobgardir.